

Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar, 2023



**KLINIK LABORATOR
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**
18 aprel 2023 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

WWW.SSV.UZ

Toshkent tibbiyot akademiyasi WWW.TMA.UZ

Jumayeva Z.S. Chaqaloqlar gemolitik anemiyasi laborator tahlili	259
Jumayeva Z.S. Ishqoriy fosfataza fermentini klinik laborator tekshirish .	260
Jumayeva Z.S. Ishqoriy fosfataza fermenti o‘zgarishlarini interpretatsiya qilish	262
Kasimova O.O. Parkinson's disease and innovative methods of laboratory diagnosis	263
Kasimova O.O. Early diagnostics of parkinson's disease using the rt-quic (the real-time quaking-induced conversion) system	265
Kasimova O.O. Rt-quic (real vaqtda quaking-induced conversion) tizimi foydalanishda parkinson kasalligining erta diagnostikasi	266
Kasimova S.A., Axatov Sh.Sh., Babadjanova Sh.A. Frequency of occurrence of steroid diabetes mellitus on the background of acute leukemia	266
Khakimov A.A., Soliyev Z. The results of clinical and laboratory studies in patients with disseminated pulmonary tuberculosis	268
Khushbakova G.O., Mukhiddinova F.M., Abdiraimova M.A., Abdiraimova A.N. Laboratory examination of hemoglobin	269
Kodirova M.M. Innovatsion laborator tekshirish usullari	270
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Xo‘shboqova G.O‘. Autoimmun gemolitik anemiya klinik laborator diagnostikasi	272
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Mieloid leykemoid reaksiyalarning klinik ahamiyati	275
Kurbonova Z.Ch., Xo‘shboqova G.O‘., Baltayeva F.G. Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda gematologik ko‘rsatkichlar tahlili	277
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Xo‘shboqova G.O‘. Autoimmun gemolitik anemiya etiopatogenetik aspektlari	279
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Surunkali kasalliklar anemiyasi klinik laborator diagnostikasi	280
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Eritremiya klinik laborator diagnostikasi	282
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Qon yaratish tizimi o‘sma kasalliklari etiopatogenetik aspektlari	285
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Leykositoz va uning klinik ahamiyati	287
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Limfositlar va monositlar leykemoid reaksiya klinik ahamiyati	289
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Mielom kasalligi klinik laborator diagnostikasi	290

- o'pka rentgenogrammasi (agar kerak bo'lsa, KT);
- ezofagogastroduodenoskopiya;
- irrigoskopiya / sigmoidoskopiya / kolonoskopiya;
- Qorin bo'shlig'i organlari va qorin bo'shlig'i limfa yo'llarining ultratovush tekshiruvi
- tugunlar, kichik tos suyagi, prostata bezi, qalqonsimon bez;
- agar kerak bo'lsa, qalqonsimon bez gormonlarini aniqlash,
- prostata o'ziga xos antigeni, o'simta belgilari.

Adabiyotlar.

1. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўқув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: электрон ўқув қўлланма. 2022, 146 б.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Лаборатория иши: ўқув қўлланма. 2023, 150 б.
4. Babadjanova Sh.A., Kurbonova Z.Ch. Qon kasalliklari: o'quv qo'llanma. 2023, 156 b.
5. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.
6. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: elektron o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 176 b.
7. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.
8. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik tashxis asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
9. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik diagnostika asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
10. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Saidov A.B. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2021. – 56 b.
11. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.
12. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Introduction to cytological diagnostics: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

MIELOID LEYKEMOID REAKSIYALARNING KLINIK AHAMIYATI

**Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A.
Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Leykemoid reaksiyalar organizm himoya reaksiyasi bo'lib, qonda yetilmagan qon hujayralari chiqishi bilan xarakterlanadigan patologik jarayondir. Leykemoid reaksiyalar - mustaqil kasallik emas. Qonda yetilmagan qon hujayralari chiqishi tufayli leykemoid reaksiyalar bilan leykozlarni differensial farqlash lozim.

Leykemoid reaksiyasi uchun leykozga xos bo'lgan o'sma rivojlanishining belgilari xarakterli emas va shuning uchun ularda anemiya va trombositopeniya

yuzaga kelmaydi, faqat asosiy kasallik tufayli yuzaga kelgan hollar bundan mustasno. Mieloid leykemoid reaksiyalarning quyidagi turlari bor: neytrofil, eozinofil va bazofil leykemoid reaksiyalar.

Neytrofil tipidagi leykemoid reaksiya surunkali mieloleykoz yoki idiopatik mielofibroza o'xshaydi. Bu leykemoid reaksiya quyidagilar bilan xarakterlanadi: kuchli leykositoz, qonda metamielosit, mielosit, promielositlar paydo bo'lishi, eritroid normositlar paydo bo'lishi, mielogrammada suyak ko'migi granulositar qator hujayralari - metamielosit, mielosit, promielositlar oshishi.

Mieloid leykemoid reaksiya quyidagi hollarda uchraydi: bakterial etiologiyali o'tkir yallig'lanish kasalliklari, yiringli jarayonlar, shu jumladan osteomielit, septik holatlar, og'ir ekzo- va endogen intoksikatsiyalar (uremiya, diabetik ketoasidoz, koma), revmatizm, og'ir gemoliz, to'qima parchalanishi va nekrozi (miokard infarkti), ovqat toksikoinfeksiyalari, yuqori dozada steroid gormonlar, sitstatiklar, insulin qo'llash, kuchli qon ketish, neoplastik kasalliklar (yomon sifatli o'smalar), tarqalgan sil kasalligi.

Myeloid turdagi leykemoid reaksiyalarni surunkali mieloleykoz bilan differensial diagnostika o'kaziladi. Surunkali miyeloid leykozdan farqli o'laroq, reaktiv leykotsitoz har doim tana haroratining oshishi bilan kechadigan og'ir jarayonga asoslanadi. Neytrofil granulotsitlar ishlab chiqarishning ko'payishi mikroorganizmlarining umumiy nobud bo'lishi, to'qimalarning shikastlanishi, qonga endotoksin va ekzotoksinlarning kirib borishi bilan bog'liq.

Miyeloid eozinofil va bazofil tipidagi leykemoid reaksiya eozinofillar yoki bazofillarning 20-90% gacha oshishi, yosh bo'lgan eozinofil yoki bazofil metamielosit, mielosit, promielositlar qonga chiqishi bilan xarakterlanadi.

Eozinofil yoki bazofil leykemoid reaksiya quyidagi patologiyalarda uchraydi: allergik reaksiyalar, gijja invaziyalari, immunopatologik kasalliklar (revmatoidli artrit, Kron kasalligi, nospesifik yarali kolit va b.), gemoblastoz va boshqa neoplaziyalar (surunkali mieloleykoz, limfogranulematoz, limfomalar va b.), o'pka eozinofil infiltratlari, bronxial astma, Kvinke angionevrotik shishi, dermatozlar, emlashdan so'ng va b. Retroperitoneal limfa tugunlari, taloq, ingichka ichakning shikastlanishi bilan limfogranulomatozda yuqori eozinofiliya prognostik jihatdan noqulay belgi bo'lib xizmat qiladi.

Eozinofil yoki bazofil leykemoid reaksiya surunkali mieloleykoz bilan differensial diagnostika qilinadi. Buning uchun eozinofil yoki bazofil qator 100 ta hujayrasi sanaladi. Agar eozinofilogrammada tayoqcha va segment yadroli eozinofillar ustun bo'lsa eozinofil leykemoid reaksiya deb baholanadi. Surunkali mieloleykozda eozinofilogrammada eozinofil metamielosit, mielosit, promielositlar ustun bo'ladi.

Adabiyotlar.

1. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўқув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: электрон ўқув қўлланма. 2022, 146 б.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Лаборатория иши: ўқув қўлланма. 2023, 150 б.

4. Babadjanova Sh.A., Курбонова З.Ч. Qon kasalliklari: o'quv qo'llanma. 2023, 156 b.
5. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.
6. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: elektron o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 176 b.
7. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.
8. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik tashxis asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
9. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik diagnostika asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
10. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Saidov A.B. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2021. – 56 b.
11. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.
12. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Introduction to cytological diagnostics: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA GEMATOLOGIK KO'RSATKICHLAR TAHLILI

**Kurbonova Z.Ch., Xo'shboqova G.O., Baltayeva F.G.
Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston, Toshkent**

COVID-19 - bu gemopoetik tizimga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan tizimli infeksiya. Koronavirus kasalligi 2019 (COVID-19) birinchi marta Vuxandagi epidemiya haqida xabar berilgan edi, u tezda pandemiyaga aylanib ketdi va milliardlab odamlarni ijtimoiy ajratish choralariga rioya qilishga majbur qildi. Garchi COVID-19 asosan nafas yo'llarining infeksiyasi bo'lsa-da, so'nggi dalillar uni yurak-qon tomir, nafas olish, oshqozon-ichak, nevrologik, gemopoetik va immun tizimlariga ta'sir qiluvchi tizimli kasallik deb hisoblash kerakligini ko'rsatadi.

Maqsad. Covid-19da umumiy qon tahlilida leykotsitlar miqdori, leykotsitar formula va trombositlar sonini koronavirus infeksiyasining og'irlik darajasiga, o'pkaning shikastlanish darajasiga bog'liqligini o'rganish.

Material va metodlar. Tadqiqot ob'yekti sifatida Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida 2020-2021yillarida Covid-19 tashxisi bilan davolangan 100 nafar bemorning kasallik tarixi tekshirildi.

Barcha tadqiqotdan o'tuvchilar uch guruhga bo'lingan:

1-guruh 30 nafar Covid-19 yengil kechishi bilan kasallangan bemorlar.

2-guruh 36 nafar Covid-19 o'rta og'ir kechishi bilan kasallangan bemorlar.

3-guruh 34 nafar Covid-19 og'ir kechishi bilan kasallangan bemorlar.

Natija. Koronavirus infeksiyasining inkubatsiya davrida va erta bosqichida periferik qon ko'rsatkichlari normal qiymatni ko'rsatdi. Og'irlik darajasi yengil bo'lgan 1-guruh bemorlarda o'pka zararlanishi aniqlanmagan bemorlarda leykotsitlar $8,2 \pm 2,3 \times 10^9/l$, leykoformulada neytrofillar $68 \pm 4,8\%$, limfositlar $25 \pm 1,2\%$, monositlar $7 \pm 0,5\%$, trombositlar $240 \pm 12 \times 10^9/l$ bo'lishi kuzatildi.